



Bilimni
baholash
agentligi

BILIM VA MALAKALARNI BAHOALSH
AGENTLIGI
Bilimingga ishon va muvaffaqiyatga erish!

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING
UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI
ISHTIROKCHILARI UCHUN

TARIX
FANIDAN
TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test varianti 40 ta (1–40) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdag'i test topshiriqlari mavjud:

- yopiq turdag'i test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;
- ochiq turdag'i test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;
- moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiylit (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (38-, 39-, 40-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1.

[2,4 ball]

Davlatlar va ularning hukmdorlari o'zaro mos berilgan javobni aniqlang.

O'rta asrlar:

- 1) Polsha davlati; 2) Franklar davlati;
 - 3) Vizantiya imperiyasi; 4) Muqaddas Rim imperiyasi;
 - a) Gotfrid Bulonskiy; b) Gugo Kapet;
 - c) Meshko I; d) Fridrix I Barbarossa;
 - e) Aleksey I; f) Karl Martell.
- A) 1-c, 2-f, 3-e, 4-d B) 1-a, 2-f, 3-e, 4-d
 C) 1-c, 2-b, 3-e, 4-d D) 1-a, 2-b, 3-d, 4-e

3.

[3,4 ball]

Quyida berilganlardan **XIX asr tarixiga oid bo'lganlarini toping.**

- 1) "Kulturkampf"; 2) "Marshall rejasi";
 - 3) "Berlin traktati"; 4) "Barbarossa" rejasi;
 - 5) "Simonoseki sulhi"; 6) "Antikomintern pakti"; 7) "Xey" doktrinasi; 8) "Ixetuan" harakati.
- A) 2, 3, 5, 6, 7
 B) 2, 4, 5, 7, 8
 C) 1, 4, 6, 7, 8
 D) 1, 3, 5, 7, 8

2.

[2,4 ball]

Quyida keltirilgan tarixiy voqealar orasidan **ENG KEYIN sodir bo'lgan voqeaneing natijasi** keltirilgan javobni toping.

- 1) "Shimoliy urush"; 2) "Qrim urushi";
 - 3) "Vatan urushi" (Rossiya va Fransiya o'rtaida); 4) "Buyuk dehqonlar urushi".
- A) Napoleon armiyasi Moskvani egalladi
 B) Buyuk Britaniya, Fransiya va Turkiya uchlik ittifoqi g'alaba qozondi
 C) Rossiya Boltiq dengiziga chiqish huquqiga ega bo'ldi
 D) katoliklar bilan protestantlar o'rtaida dashmanlikka barham berildi

4.

[3,4 ball]

Quyidagilardan boshqalariga nisbatan **ENG AVVAL (a) va ENG KEYIN (b) sodir bo'lganlarini aniqlang.**

- 1) Angliyaning Virjiniyadagi ilk manzilgohi – Jeymstaun tashkil qilindi;
 - 2) Brandenburg knyazligi o'mida Prussiya qirolligi tashkil topdi;
 - 3) Fransiya tomonidan Jazoir bosib olindi;
 - 4) Buyuk Britaniya Bengaliyani bosib oldi;
 - 5) London shahrida ishchilarining "Umumiy saylov huquqi uchun kurash ishchi assotsiatsiyasi" tuzildi;
 - 6) Birinchi ingliz-afg'on urushi yakun topdi;
 - 7) "Bobiyalar qo'zg'oloni" boshlandi;
 - 8) "Qrim urushi" boshlandi.
- A) a-1, b-8 B) a-2, b-6 C) a-5, b-7
 D) a-4, b-3

5.

[3,4 ball]

Quyidagilar orasidan **to‘g‘ri ma’lumotlar ko‘rsatilgan** javobni aniqlang.

- 1) Rossiya tomonidan Kushka shahri egallangan yilda Sudanda mustaqil Mahdiylar davlati tuzildi;
- 2) Buyuk Britaniya Misr hukumatidan Suvaysh kanalining 45 % aksiyasini sotib olgan yilda Yaponiya Janubiy Saxalin hisobiga Kurill orollarini Rossiyadan ajratib, o‘ziga qo‘sib oldi;
- 3) Yaponiya va Xitoy o‘rtasida Simonoseki sulhi imzolangan yilda Rossiya va Usmonli davlati o‘rtasida Gandamak shartnomasi imzolandi;
- 4) Ingliz-bur urushi boshlangan yilda Xitoyda "Ixetuan" harakati qo‘zg‘olon tusini oldi;
- 5) Buyuk Britaniyada "Ish haqi minimumi to‘g‘risida"gi qonun qabul qilingan yilda Argentinada immigratsiya va kolonizatsiya to‘g‘risida qonun qabul qilindi;
- 6) Liviya Italiya mustamlakasiga aylangan yilda Albaniya mustaqillikka erishdi (Turkiyadan);
- 7) Yaponiya Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o‘ziga qo‘sib olgan yilda Fransiya Madagaskarni o‘z mustamlakasi deb e’lon qildi.

- A) 1, 2, 4, 6 B) 2, 5, 6, 7 C) 2, 3, 4, 6
D) 1, 3, 5, 7

6.

[3,4 ball]

1971-yili ingliz qo‘sinchilari chiqib ketgandan so‘ng Arabiston yarimorolining sharqida Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) federatsiyasi tashkil qilindi.

Quyidagilardan qaysilari BAA federatsiyasi tarkibiga kirgan?

- 1) Abu Dabi; 2) Al-Hufuf; 3) Dubay;
 - 4) Ed-Daura; 5) Sharja; 6) Yanbu al-Baxr;
 - 7) Umm ul-Qayvayn; 8) Yabu al-Baxr; 9) Ra’s ul-Xayma; 10) Bushir.
- A) 2, 3, 6, 9, 10 B) 2, 4, 5, 6, 8
C) 1, 3, 5, 7, 9 D) 1, 4, 5, 7, 10

7.

[3,4 ball]

Quyida berilgan ma’lumotlar (voqealar)dan qaysilari SSSR tarixida **“iliqlik davri” deb nom olgan davrga oid?**

- 1) KPSSning XX syezdi bo‘lib o‘tdi; 2) SSSR bilan AQSh o‘rtasida strategik qurollarni cheklash bo‘yicha birinchi shartnoması – SQCh-1 imzolandi; 3) “Karib inqirozi” nomini olgan xavfning oldi olindi; 4) SSSRda rivojlangan sotsialistik jamiyat qurish nazariyasi ilgari surilgan yangi konstitutsiya qabul qilindi; 5) Sovet Ittifoqida dunyoda birinchi Yerning sun’iy yo‘ldoshi uchirildi; 6) Sovet qo‘sinchilari Afg‘onistonga kiritildi (Hafizullo Amin); 7) dunyoda birinchi marta Yuriy Gagarin “Vostok” kosmik kemasida koinotga parvoz qildi; 8) SSSR va Sharqiy Yevropa davlatlarining harbiy-siyosiy ittifoqı – Varshava Shartnomasi Tashkiloti tuzildi; 9) mamlakatda “turg‘unlik davri” nomini olgan inqiroz boshlandi.

- A) 1, 3, 5, 7, 8 B) 2, 3, 6, 8, 9
C) 2, 4, 6, 7, 8 D) 1, 4, 5, 7, 9

8.

[3,4 ball]

Quyidagi lardan qaysilarida
davlat-shaxs-voqe mosligi to‘g‘ri berilgan?

- 1) Italiya – Alchide de Gasperi – mamlakat NATO ga a’zo bo‘lib kirdi;
 - 2) Portugaliya – Antonio Salazar – mamlakatda "Chinnigullar inqilobi" bo‘lib o‘tdi;
 - 3) Xitoy – Mao Szedun – mamlakatni rivojlantirishning "Katta sakrash" deb nomlangan o‘ta ziddiyatli siyosat amalga oshirildi;
 - 4) Fransiya – Jorj Pompidu – Buyuk Britaniyaning YEIH a’zoligiga qabul qilinishida qarshilik qilmadi;
 - 5) Filippin – Fidel Ramos – mamlakatda 2006-yili bekor qilingan o‘lim jazosini qayta tiklash tarafdoi bo‘ldi;
 - 6) Ispaniya – Fransisko Franko – mamlakat NATOga a’zo bo‘ldi;
 - 7) Eron – M.Hotamiy – mamlakatda demokratik va tolerant jamiyat qurishga qaratilgan islohotlar boshlanganligi e’lon qilindi;
 - 8) Iroq – Saddam Husayn – malakat Eroniga qarshi urush boshladi.
- A) 1, 4, 5, 6, 8 B) 2, 3, 5, 6, 7
C) 2, 4, 5, 7, 8 D) 1, 3, 4, 7, 8

9.

[3,4 ball]

Quyidagi tarixiy voqe (ma’lumot)larning **xronologik ketma-ketligi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.**

- 1) Abdullaxon II ning harbiy yordamini bilan Shayboniy Ko‘chimxon Sibir xonligi taxtini egalladi;
 - 2) Angliyada Yelizavetta I hukmronligi nihoyasiga yetdi;
 - 3) Mo‘g‘ullarga qarshi kurashda Moskva knyazi Dmitriy Ivanovich Voje daryosi bo‘yida dastlabki g‘alabaga erishdi;
 - 4) Misr poytaxti Qohira shahri Usmoniyalar imperiyasi tomonidan bosib olindi;
 - 5) Britaniya va uning Amerikadagi sobiq mustamlakalari o‘rtasida Parij sulhi imzolandi;
 - 6) Toshkentda to‘rt hokimlik davri tugadi.
- A) 4, 2, 5, 3, 6, 1 B) 3, 4, 1, 2, 5, 6
C) 1, 3, 5, 4, 2, 6 D) 3, 1, 5, 4, 2, 6

10.

[3,4 ball]

Quyida berilgan **atamalarni ularning izohi bilan to‘g‘ri moslashtiring.**

- 1) Anneksiya; 2) Intervensiya;
- 3) Izolyatsionizm; 4) Okkupatsiya;
- 5) Anarxizm.
 - a) boshqa bir davlat hududini butunlay yoki qisman egallab olish yoki o‘z davlatiga qo‘sib olish siyosati;
 - b) urushayotgan tomonlardan birining urush harakatlarini, qurolli qarshilik ko‘rsatishni davom ettirishdan voz kechishi;
 - c) bir yoki bir necha davlatning boshqa bir davlat ichki ishlariga zo‘rlik bilan aralashuvni, uning hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligiga qarshi qaratilgan harakatlari;
 - d) biror masala yuzasidan bir davlat hukumatining boshqa davlat hukumatiga bayon qilgan, hech qanday e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan qat’iy talabi;
 - e) boshqa davlatlar, millatlar, xalqlar, etnik guruhlarning ishlariga aralashmaslik g‘oyasiga asoslangan tashqi siyosat yo‘nalishini belgilash;
 - f) urush olib borayotgan tomon qurolli kuchlarining boshqa davlat yerlarini bosib olib, vaqtincha egallab turishi;
 - g) mamlakatning o‘z-o‘zini ta’minalash qoidasiga asoslangan, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalardan uzilib qolgan biqiq xo‘jalik yuritish siyosati;
 - h) alohida bir shaxsning xohish-irodasinigina tan olib, har qanday hokimiyat va davlat tuzumini rad etuvchi ta’limot;
 - i) xalqaro majburiyatlarga yoki xalqaro huquq me’yorlariga rioya qilmagan, ularni buzgan davlatlarga nisbatan bir mamlakat (yoki mamlakatlar guruhi) tomonidan qarshi qo’llanadigan (iqtisodiy, moliyaviy yoki harbiy) jazo yoxud ta’sir chorasi.

- A) 1-b, 2-g, 3-d, 4-f, 5-i
B) 1-b, 2-c, 3-e, 4-f, 5-a
C) 1-a, 2-c, 3-e, 4-f, 5-h
D) 1-a, 2-g, 3-f, 4-e, 5-h

11.

[3,4 ball]

Quyida berilgan ma'lumotlarni o'qing.

I. *U davlat va siyosat arbobi. Mamlakatda amalga oshirilgan davlat to'ntarishidan so'ng u Meksika prezidenti deb e'lon qilinadi. U AQSh va mahalliy pomeshchiklar reaksiyasiga tayangan. U bu lavozimda ozgina tanaffus bilan 1911-yilgacha faoliyat yuritgan.*

II. *U AQSh davlat arbobi, oliv ma'lumotli yurist, 1904-1908-yillarda AQSh harbiy vaziri lavozimida faoliyat yuritgan. 1905-yil AQSh-Yaponiya shartnomasini imzolanishiga ishtirok etgan. U "dollar diplomatiyasi" siyosatini e'lon qilgan. U bu siyosatni Lotin Amerikasi davlatlariga nisbatan qo'llagan.*

III. *U Panafrika harakatining ko'zga ko'ringan arboblaridan biri bo'lgan. U 1920-yilda "Orqaga, Afrikaga!" shiori bilan chiqadi va o'zini Afrikaning birinchi imperatori deb e'lon qiladi.*

Ushbu ma'lumotlar qaysi tarixiy shaxslar haqida ekanligini aniqlang.

A) I. Porfirio Dias; II. Uilyam Taft; III. Markus Garvi

B) I. V.Uerta; II. Vudro Vilson; III. Uilyam Dyubua

C) I. Porfirio Dias; II. Vudro Vilson; III. Uilyam Dyubua

D) I. V.Uerta; II. Uilyam Taft; III. Markus Garvi

12.

[2,4 ball]

Quyidagilardan G'aznaviylar davlati tarixiga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

1) XI asr boshlarida davlat hududi kengayib, Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan;

2) G'aznaviylarning siyosiy nufuzi Mas'ud davrida ortib, somoniylar tomonidan e'tirof etilgan;

3) Somoniylar sulolasini barham topgach, Mahmud Xuroson hududlarini, so'ng Xorazm davlatini o'z sultanatiga qo'shib olgan;

4) Mas'ud hukmronligi davrida qoraxoniylarning mahalliy hukmdori Ibrohim Bo'ritegin Amudaryo bo'yli viloyatlari – Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonning aznaviylardan tortib olgan;

5) Bolosog'un shahri davlat poytaxti bo'lgan.

A) 2, 4, 5 B) 1, 4, 5 C) 2, 3, 4 D) 1, 3, 4

13.

[2,4 ball]

Buxoro amirlari boshqaruvi davriga oid ma'lumotlar to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1) Amir Shohmurod; 2) Amir Haydar.

a) urush kelib chiqqanida qo'shining xarajati uchun "jul" deb ataluvchi yangi soliq joriy etdi;
b) uning hukmronligi davrida Buyuk Britaniya U.Murkford boschchiligidagi ekspeditsiyani Buxoroga yubordi;

c) Buxoro-Eron o'rtaida urush kelib chiqqudek bo'lsa, birgalikda harakat qilish taklifi bilan Rossiya imperatori huzuriga Polvonqli qurchi elchiliginи yubordi;

d) Xiva hukmdori Eltuzarxon qo'shinlarini Amudaryo qirg'oqlarida mag'lubiyatga uchratdi.

A) 1-c, d; 2-a, b B) 1-a, d; 2-b, c
C) 1-b, c; 2-a, d D) 1-a, c; 2-b, d

14.

[3,4 ball]

Qo'qon xoni Olimxon boshqaruvi davriga oid
TO'G'RI ma'lumotlarni aniqlang.

1) Toshkentdan chaqirilgan qo'shin bilan qipchoqlar qirg'inini uyushtirdi (XIX asr o'rtalari); 2) Ohangaron vohasi, Chimkent, Sayram, Turkistonni bosib oldi; 3) Xo'jand va O'ratega uchun Buxoro amirligi bilan ketma-ket urush harakatlarini olib borgan; 4) U o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun ruslar bilan aloqa o'rnatishga intildi va rus qo'mondonligi vakili V. Velyaminov-Zernov bilan maxfiy ravishda uchrashdi; 5) U birinchi bo'lib xonlikda 10 ming kishilik muntazam qo'shin tuzdi; 6) o'z ukasi Sulton Mahmudxon foydasiga taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi; 7) uning hukmronligi davrida Toshkent xonlik tarkibiga qo'shib olindi; 8) o'zining xonlik nomi yozilgan kumush tanga pul (dinor)ni zarb ettirdi va o'zini xon deb e'lon qildi.

- A) 1, 2, 5, 7, 8 B) 2, 4, 5, 6, 7
 C) 3, 4, 5, 6, 8 D) 2, 3, 5, 7, 8

15.

[2,4 ball]

Quyida berilgan ma'lumotlarni o'qing.

I. Fon Kaufman 1868-yil Samarqandda amir Muzaffar bilan Buxoro amirligini Rossiya imperiyasining protektoratiga aylantirgan shartnomani imzolagan;
 II. 1881-yildagi "Nizom"ga muvofiq Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy boshqaruvi yangi idora – Turkiston general-governatori Kengashi bilan to'ldirilgan;
 III. 1867-yilgi "Nizom" loyihasi bo'yicha o'lkada qozilar va biy sudlari, uyezd sudlari bekor qilinib, ularning o'rniغا shahar va zemstvo boshliqlari tomonidan tayinlanadigan uchastka mirovoy sudyalari (sudlari) tuzilgan;
 IV. Zirabuloq jangidan keyin Rossiya imperiyasi istilochilik yurishlarining ikkinchi bosqichi yakunlangan;
 V. O'rta Osiyoda bosib olingan hududlar ma'muriy jihatdan bo'linib, ular to'liq harbiy zabitlar qo'l ostida bo'lgan.

Ushbu ma'lumotlarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang.

- A) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri;
 IV-noto'g'ri; V-to'g'ri
 B) I-noto'g'ri; II-noto'g'ri; III-to'g'ri; IV-to'g'ri;
 V-noto'g'ri
 C) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-to'g'ri; IV-to'g'ri;
 V-to'g'ri.
 D) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-noto'g'ri; IV-to'g'ri;
 V-to'g'ri

16.

[3,4 ball]

Voqe va shaxs o‘zaro mos berilgan javobni toping.

a) rus qo‘sishlari tomonidan Toshkentni egallanishi; b) Samarqandni ozod qilish uchun kurashni boshlanishi (1868-yil); c) “Jizzax qo‘zg‘oloni”; d) “Tarbiyai atfol” jamiyatini tashkil etilishi.

- 1) Bobobek; 2) amirlashkar Aliquli;
- 3) Nazirxo‘ja eshon; 4) Mirza Abduvohid;
- 5) Hamidxo‘ja Mehriy; 6) M.Chernyayev;
- 7) Eshonqul To‘rabekov; 8) Jo‘rabek;
- 9) S.Putinsev; 10) Dukchi eshon

A) a-8, 9; b-1, 2; c-4, 7; d-3, 10

B) a-2, 6; b-1, 8; c-3, 10; d-4, 7

C) a-2, 6; b-1, 8; c-3, 7; d-4, 5

D) a-1, 9; b-2, 8; c-3, 7; d-4, 5

17.

[2,4 ball]

1917-yil Petrogradda yuz bergen Fevral inqilobi “Yosh buxoroliklar” ichida kuchlar nisbatining qayta guruhlanishini tezlashtirdi. Shulardan asta-sekin isloh qilish tarafdlari bo‘lgan eski jadidlarga (a) va islohot sohasida faol harakatlarni qo‘llovchi yosh jadidlarga (b) yetakchilik qilgan shaxslar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

- 1) Abdulla Avloniy; 2) Abduvohid Burhonov-Munzim; 3) Sadriddin Ayniy;
- 4) Abdurauf Fitrat; 5) Mustafo Cho‘qay;
- 6) Fayzulla Xo‘jayev; 7) Mahmudxo‘ja Behbudiy.

A) a-4, 6; b-2, 3 B) a-2, 3; b-4, 6

C) a-1, 5; b-6, 7 D) a-2, 4; b-5, 7

18.

[3,4 ball]

XX asrning 20-30-yillarida O‘zbekiston SSRda sovet mafkurachilari tomonidan o‘ylab topilgan siyosiy ishlarning a’zolari sifatida qoralangan shaxslar mos ravishda ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) “O‘n sakkizlar guruhi”; 2) “Inog‘omovchilik”;
- 3) “Qosimovchilik”; 4) “Milliy ittihodchilar” va “milliy istiqlolchilar”; 5) “Narkompros”;
- 6) “Botir gapchilar”; 7) “Badriddinovchilik”;
- a) B.Sharipov; b) Abdurahim Hojiboyev;
- c) Munavvarqori Abdurashidxonov; d) Mannon Abdullayev; e) Shamsutdin Badriddinov;
- f) Muxtorjon Saidjonov; g) Ashurali Zohiriy;
- h) N.Alimov; i) Mahmud Hodiyev; j) Nodir Saidov; k) Rahim Inog‘omov.

A) 1-d, c; 2-k; 3-a, h; 4-f; 5-b, j; 6-i; 7-e

B) 1-a, f; 2-k; 3-b, h; 4-c; 5-d, j; 6-g; 7-e

C) 1-b, f; 2-k; 3-a, h; 4-c; 5-d, i, j; 6-g; 7-e

D) 1-b, f; 2-e; 3-i, h; 4-a; 5-d, j; 6-g; 7-c

19.

[3,4 ball]

Mustaqil O'zbekiston tarixi bilan bog'liq qaysi ma'lumotlarni **NOTO'G'RI?**

I. 1990- 1995-yillarda mamlakatimiz parlamenti Oliy Kengash nomi bilan atalib, 250 deputatdan iborat bo'lgan.

II. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati hisoblanib, Oliy Majlisning qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organidir.

III. O'zbekistonda Favqulodda sudlar tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

IV. 1991-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Mudofaa ishlari vazirligi tasarrufida Chegara qo'shirlari boshqarmasi tashkil etildi.

V. Viloyatlar va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

VI. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Prezident rahbarlik qiladigan 14 kishilik Milliy komissiya tuzildi.

- A) I, IV, V B) II, III, VI C) I, III, V
D) II, IV, VI

20.

[2,4 ball]

XIX asr so'nggi choragida Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashdi.

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashuvining asosiy sabablarini aniqlang.

- 1) Prussiya bilan bo'lgan urush mamlakatga juda katta moddiy talofat yetkazdi; 2) tabiiy boyliklari kam edi; 3) Uchinchi Respublika Konstitutsiyasini qabul qilinishi;
4) mamlakatda pensiya haqida qonun qabul qilindi. Unda pensiya yoshi 65 yosh deb belgilandi; 5) ichki siyosiy vaziyatning beqarorligi; 6) mamlakat chetga ko'p kapital chiqarib yuborgan edi.

- A) 2, 4, 5, 6 B) 2, 3, 4, 6 C) 1, 2, 5, 6
D) 1, 3, 4, 5

21.

[2,4 ball]

Ikkinci jahon urushi yillarida O'zbekiston mehnatkashlarining kuchi bilan **barpo etilgan kanallarni aniqlang.**


- 1) Kosonsoy; 2) Yuqori Chirchiq; 3) Ulug'nor;
4) Shimoliy Farg'ona; 5) Rudasoy;
6) Uchqo'rg'on; 7) Shahrixonsoy;
8) So'x-Shohimardon.

- A) 1, 3, 6, 8 B) 2, 4, 6, 8 C) 1, 4, 5, 7
D) 2, 3, 5, 7

22.

[2,4 ball]

Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



- A) 2, 3, 5, 7
- B) 1, 4, 6, 8
- C) 2, 3, 4, 6
- D) 1, 5, 6, 7

23.

[2,4 ball]

Quyida keltirilgan mualliflar yozgan asarlari bilan to‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping.

1. Aziz Nesin	a) "Amerika fojeasi"
2. Yasusi Inoue	b) "G‘aroyib bolalar"
3. Ernest Xeminguey	c) "G‘arb o‘lkasi haqidagi xotiralar"
	d) "Alvido, qurol!"


- A) 1-a, 2-b, 3-c
- B) 1-b, 2-c, 3-a
- C) 1-a, 2-c, 3-d
- D) 1-b, 2-c, 3-d

24.

[3,4 ball]

Quyida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib, **Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni aniqlang.**

Buyuk Britaniya Fransiya



- a) 1919-yil noyabrdada mamlakatda bo'lib o'tgan saylovda Milliy blok deb ataluvchi burjua partiyalardan iborat guruh tuzildi;
- b) Ikkinchi jahon urushini antigitler koalitsiyasining yetakchi davlatlaridan biri va g'olib sifatida yakunladi;
- c) ushbu davlat bosimi ostida Chexoslavakiya hukumati Sudet viloyatini Germaniyaga berishga majbur bo'ldi;
- d) Ikkinchi jahon urushidan keyin Hindixitoy hududida milliy-ozodlik harakatlarini shafqatsizlarcha bostirish siyosatini olib bordi;
- e) 1950-yillar mamlakat iqtisodining sekin, ammo barqaror o'sish davri bo'lib, jahon ishlab chiqarishidagi hissasi ancha pasaydi, shunga qaramasdan u kapitalistik dunyoda AQSh dan keyin ikkinchi o'rinni egallab turdi;
- f) 1962-yil o'z mustamlakasi bo'lgan Jazoirga mustaqillik berdi;
- g) 1970-yillarning o'rtalarida mamlakatda "To'g'ri yondashuv" nomli dastur qabul qilindi;
- h) mamlakat rahbari J.Pompidu siyosatda o'zi tanlagan yo'lni "vorislik va muloqot" deb atadi;
- i) ushbu davlat mustamlakasi bo'lgan Oltin Qirg'oq o'z mustaqilligini e'lon qildi va o'zini Gana davlati deb atadi (1950-yillar);
- j) Yevropa Kengashi (YK) ning ta'sischilaridan biri hisoblanadi;
- k) 1957-yil 25-martda Rim shartnomasini imzolagan;
- l) Marshal rejasiga qo'shilgan;
- m) 2016-yil sentyabrda Slovakiyada bo'lib o'tgan YI rahbarlarining yig'ilishida ilk bor mamlakat Bosh vaziri ishtirok etmadi.

A) I-a, e, g, k, m; II-b, d, f, h, i; III-c, j, l

B) I-b, e, g, i, m; II-a, d, f, h, k; III-c, j, l

C) I-b, e, g, h; II-a, i, j, m; III-c, d, k

D) I-b, h, i, j; II-a, e, f, g, m; III-c, d, k

25.

[1,3 ball]

Birlashgan Rim imperiyasining (Sharqiy va G'arbiy qismlari) **so'ngi imperatori bo'lgan shaxs nomini yozing.**

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

26.

[1,3 ball]

Mil.avv. 431-404-yillarda qadimgi Yunoniston tarixida eng yirik urush – Peloponnes urushi yuz bergen.

Mazkur urush boshlanganda Afina strategi lavozimida bo'lgan shaxsning nomini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

27.

[1,3 ball]

"Uchlar ittifoqi" tuzilgan vaqtida **Avstriya-Vengriya imperiyasi hukmdori bo'lgan shaxsning nomini yozing.**

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

28.

[1,3 ball]

Buyuk Britaniyada Yuz yillik urush (1337-1453)dan keyingi davrda hukmdronlik qilgan sulolalar ichidan **eng uzoq vaqt hukmdronlik qilgan sulolaning nomini yozing.**

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

29.

[1,3 ball]

SHHTning 2016-yilgi Toshkent sammitida qaysi davlatlarning ushbu tashkilotga a'zo davlat maqomini olish yo'lidagi majburiyatlari to'g'risida memorandumlar imzolandi?

2 ta davlat nomini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

30.

[1,3 ball]

Buxoroda Minorai kalon qurilgan vaqtida **Movarounnahrda hukmdronlik qilgan sulolaning nomini yozing.**

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

31.

[1,3 ball]

O'rta asrlarda O'rta yer dengizi sohillari bo'ylab italiyalik savdogarlar tashkil etgan **savdo manzilgohlarining umumiyl nomini yozing.**

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

32.

[1,3 ball]

2012-yili boylar uchun qo'shimcha soliq o'rnatish tashabbusi bilan chiqqan **Fransiya prezidentining nomini yozing.**

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

33.

[1,3 ball]

Qadimgi Olimpiya o'yinlari to'xtatilgan vaqtida **Rim imperiyasi hukmdori bo'lgan shaxsning nomini yozing.**

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

34.

[1,3 ball]

O'rta asrlarda roman uslubida qurilgan Laax monastiri joylashgan davlat nomini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

35.

[2,4 ball]

Quyidagi jadvalda tarixiy voqealar va uning natijasi o‘zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.

Nº	Voqea	Natija
1.	Frankfurt sulu shartnomasining imzolanishi	Elzas va Lotaringiya viloyatlari Germaniyaga berildi
2.	Buyuk Britaniyada ikkinchi parlament islohotining o‘tkazilishi	Mamlakatda saylovda qatnashuvchilar soni ortdi
3.	Italiya-Usmonli davlati urushi	Sevr shartnomasi imzolandi
4.	Birinchi Panamerika konferensiyasining chaqirilishi	"Amerika respublikalari syezdi" asotsiatsiyasi tuzildi
5.	Rossiya-Yaponiya urushi (1904-1905)	Saxalin orolining janubiy qismi Yaponiyaga berildi
6.	SSSRda Avgust isyoni	Mamlakatda KPSSning faoliyati to‘xtatildi
7.	Berlin operatsiyasi (1945)	"Berlin devori" quladi

A) 2, 3, 4, 5, 6

B) 1, 3, 4, 6, 7

C) 1, 2, 3, 5, 7

D) 1, 2, 4, 5, 6

36.

[3,4 ball]

Quyidagi jadvalda **harflar bilan belgilangan kataklar o‘rniga mos keluvchi ma’lumotlar** to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

Asr	O‘zbekiston tarixidagi voqea	Jahon tarixidagi voqea
VIII	a	b
c	Somoniylar davlatining tashkil topishi	d
e	f	Fransiyada General shtatlar chaqirilishi (birinchi)
XI	g	h
i	Buxoro amirligida Doniyolbiy otaliqning hokimiyat tepasiga kelishi	j
XIII	k	l

Ma’lumotlar: 1) Jaloliddin Maguberdining hokimiyat tepasiga kelishi; 2) salib yurishlarining boshlanishi; 3) Amir Temurni uch yillik urushining boshlanishi; 4) XVIII asr; 5) Ismoil Somoniy Taroz shahrini zabt etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba berishi; 6) Bolgariya podsholigida Simeonning hokimiyat tepasiga kelishi; 7) XIV asr; 8) "Yuz yillik urush" boshlanishi; 9) IX asr; 10) Xorazm Saljuqiylar davlatiga qaram bo‘lib qolishi; 11) Eronda safaviylar sulolasi hukmronligi butunlay barham topishi; 12) XIX asr; 13) Angliyada ilk parlament chaqirilishi; 14) amir Shohmurodning hokimiyat tepasiga kelishi; 15) "Oq kiyimlilar" qo‘zg‘oloning bostirilishi; 16) Angliyada tyudorlar sulolasining yakun topishi; 17) XIII asr; 18) Simonoseki shartnomasining imzolanishi; 19) Toriq ibn Said boshchiligidagi arablar qo‘smini Ispaniyani bosib olishi; 20) VIII asr.

A) a-15, b-19, c-20, d-6, e-7, f-8, g-10, h-16, i-4, j-18, k-1, l-13

B) a-15, b-19, c-9, d-6, e-7, f-3, g-10, h-2, i-4, j-11, k-1, l-13

C) a-5, b-19, c-9, d-6, e-17, f-3, g-11, h-2, i-4, j-16, k-1, l-13


D) a-15, b-14, c-9, d-5, e-7, f-3, g-10, h-2, i-12, j-11, k-8, l-16

37.

[2,4 ball]

Uzoq Sharq va Tinch okeanidagi bahsli muammolarni hal qilish va dengizdagи qurollarni cheklash maqsadida 1921-1922-yillarda to'qqiz davlat vakillari ishtirokida Vashington konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Xaritada raqam ostida berilgan Yevropa davlatlari orasidan qaysi biri ushbu konferensiyasida ishtirok etgan.



- A) 1, 2, 5, 7, 8
- B) 1, 3, 5, 6, 7
- C) 2, 3, 4, 6, 8
- D) 1, 4, 5, 6, 8

38-40.

Javob variantlaridan (A-F) foydalanib 38-40-topshiriqlarni bajaring.

Topshiriqlar	Javoblar
38. [2,4 ball] Qaysi shartnomaga (1905) ko'ra, Rossiya Koreyani Yaponiya ta'sir doirasi deb tan oldi?	A) "Portsmut shartnomasi" B) "Antikomintern pakti" C) "Gandamak bitimi" D) "Gandimiyon shartnomasi" E) "Simonoseki shartnomasi" F) "Atlantik xartiya"
39. [2,4 ball] Qaysi shartnomaga (1936) Ikkinci jahon urushida SSSR va antifashistik koalitsiyalarning alabasidan keyin bekor qilingan?	
40. [2,4 ball] Qaysi shartnomaga ko'ra Afg'onistonning ichki ishlarilarini nazorati qilish Kobuldag'i ingliz rezidentiga yuklatildi?	